



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

INGLIZ TILINI YANGI O'RGANUVCHILARNING O'QISH MAHORATIDAGI KAMCHILIKLARI

Mamatqulova Fotima Javlon qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili fakulteti

e-mail: mamatqulovafotima6@gmail.com, tel: +998887761224

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15178806>

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilini endi boshlagan o'rganuvchilarga o'qish mahoratining ahamiyati, ularning o'qish va topshiriqlarni bajarish jarayonida qiladigan kamchiliklari, ularni rivojlantirish metodikalari va qay tarzda qo'llash usullari kabi masalalarni yoritib beradi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, o'rganuvchilar, o'qish mahorati, metodika, usullar, strategiya, ko'nikma, statistika.

Abstract: This article shows importance of reading skills for beginners level, their defecties in the process of reading and completing assignments, and methods for developing and how to apply them.

Key words: English learner, reading skill, method, strategy rule, statistics.

Kirish qismi: Bugungi kunda ingliz tili dunyo miqyosida rivojlanayotganligi sababli bu tilga bo'lgan talablar va o'rganuvchilarning ko'rsatgichlari kundan kunga ko'payib bormoqda. Statistika ko'ra ular 1 milliard 500 millionni tashkil qiladi. Ulardan esa bu borada to'rtta mahorat talab qilinadi: o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish. O'rganuvchilar chuqur bilimlariga tayangan holda ushbu mahoratlarini rivojlantirishlari lozim, ammo bu yo'lda ular ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Barchasi turli mahoratlarda qiynalishi mumkin, bittasi eshitish mahoratida, bittasi gapirish mahoratida yana boshqasi esa yozish mahoratida. Eng asosiy mahorat bu o'qishdir. Ko'pchilik o'rganuvchilar bunda kamchiliklarga yo'l qo'yishadi va o'zlari kutgan natijani qo'lga kirita olishmaydi. O'qish nafaqat matn ichidagi so'zlarni tanib olish, balki uning umumiy mazmunini anglab yetish, yangi uchragan so'zlarni o'rganishni ham o'z ichiga oladi. Bu tilni o'rganishda bu ko'nikma juda ham muhim hisoblanadi va u tinglab tushunish, gapirish, yozish kabi ko'nikmalarga ham tasir ko'rsatadi. Ingliz tiliga endi kirib kelganlarga esa bularni o'rganish oson kechmaydi, chunki ular o'qish jarayonida so'zlarni tushunish va ularni o'rganish, matnning mohiyatini anglab yetish, gaplarning grammatik tuzulishini o'rganish kabi qator vazifalarni bajarishiga to'g'ri keladi. Ular o'qish jarayonida yangi o'rgangan so'zlarni gapirish va yozish ko'nikmalarida qo'llashi mumkin. Shuning uchun ham o'qish



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

barcha mahoratlarga olib kiradigan asosiy kalit hisoblanadi. Ushbu maqolada esa ingliz tilini yangi boshlagan o'rganuvchilarning o'qish jarayonida qiladigan kamchilik va xatoliklari haqida batafsil izlanish olib boriladi.

Asosiy qism: O'qish- bilim, ijodkorlik va shaxsiy rivojlanishga yo'l ko'rsatadigan asosiy mahorat hisoblanadi. Ammo, yangi o'rganuvchilar bu yo'lda ko'plab to'siqlarga duch kelishadi va o'sishda sekinlashishlari mumkin. Chunki ular bir qancha kamchilik va xatolarga yo'l qo'yishadi. Biz ularni ketma ketlikda ko'rib chiqamiz va yechim topamiz.

1. Juda tez yoki juda sekin o'qish.

Ba'zi yangi o'rganuvchilar tez o'qishlari sababli matndagi eng muhim ma'lumotlarni nazardan chetda qoldirishlari ya'ni o'tkazib yuborishlari mumkin. Ba'zilar esa juda sekin o'qib matnni ichiga chuqurroq kirib ketishadi va ko'p narsaga chalg'ib qolganligi sababli noto'g'ri javob olib qo'yishlari mumkin. Biz bu xatolikka yo'l qo'ymasligimiz uchun matnni bir maromda tushungan holda o'qishimiz kerak.

2. Lug'atni tushunmaslik.

Matnda ko'plab notanish ya'ni biz bilmaydigan so'zlarga duch kelamiz va bu bilan biroz xavotirga tushib qolishimiz ham mumkin. Ba'zi o'rganuvchilar matnda duch kelgan yangi so'zlarni shunchaki o'tkazib yuboradi va bu matnni ma'nosini tushunmaslikka olib keladi. Bu kamchilikni bartaraf qilish uchun har bir bilmagan so'zimizni belgilab uning ta'rifini o'rganib, matnda qaysi ma'noda qo'llanilganini aniqlashimiz lozim.

3. Tinish belgilarga e'tibor bermaslik.

Har bir vergul, nuqta, so'roq va shunga o'xshash tinish belgilar matnning ma'nosini boshqarib turadi. Ya'ngi o'rganuvchilar ularni e'tiborsiz qoldirib yana bir xatolikka yo'l qo'yishadi. Bu esa chalkashlikka ya'ni matnning voqealarini o'zgartirishga olib keladi. Bu xatolikka duch kelmasligimiz uchun matnni ovoz chiqargan holda ifodali va tinish belgilariga e'tibor bergan holda o'qishimiz kerak.

4. Diqqatni yo'qotish.

O'qish davomida diqqatli bo'lish eng muhimi vazifalardan biri hisoblanadi. Bir zum boshqa narsaga chalg'ib qolish fikrning buzilishiga olib keladi va matndagi ma'lumotlarni unutib qo'yishga sababchi bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham buni tinch muhitda bajarish afzaldir. Tinmay o'qish miyyani charchatadi va diqqatni yo'qotiradi. Shu sababli tanaffus qilish bilan bu muommolarga yechim topish mumkin.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

6. Asosiy tafsilotlarni o'tkazib yuborish.

Ba'zi o'rganuvchilar asosiy fikrlarni chetda qoldirishadi. Chunki ular matn bilan to'liq shug'ullanishmaydi va savolda berilgan ma'lumot bilan cheklanib qolishadi. Shu bois ko'plab ma'lumotlar nazardan chetda qoladi. Bu kamchilikni yuzaga chiqarmasligimiz uchun matn bilan to'liq bilan shug'ullanishimiz va savollar bilan tanishib ularni chambarchas boglashimiz lozim.

7. So'zlarni bir-biriga ulay olmaslik.

Ko'plab ingliz tilini o'rganuvchilarda ushbu kamchilik albatta topiladi. Ular barcha so'zlarning ma'nosini bilishsada, ularni ulab yaxlit bit ma'no chiqara olishmaydi. Bu esa ularning ingliz tili bilan yaxshi shug'ullanmaganlaridan dalolatdir. So'zlarni bir biriga bo'lab ulardan ma'no chiqarib olishimiz uchun ko'proq ingliz tili kitob o'qish va ularning grammatik tuzilishi bilan tanishib chiqishimiz shart.

Bundan tashqari biz o'qish jarayonimizda barcha gaplarni ma'nosini ya'ni tarjimasini bilayotgandek bo'lamiz. Lekin kimdir bizdan matnning ma'nosini so'rasa uni chiqarib bera olmaymiz. Shuning uchun ham gaplarni bittalab o'rganib chiqish afzaldir.

Biz bu yo'llardan foydalansak qiladigan kamchilik va xatoliklarimiz nisbatan kamayadi.

Xulosa: O'qish qobiliyati o'quv dasturining barcha yo'nalishiga bevosita ta'sir qilganligi sababli bu ko'nikmani tezroq va oson strategiya bilan ko'tarish kerak. O'qish insonning fikrlashishini va dunyoqarashini o'stirishga xizmat qiladi. Bu bo'yicha qator olimlar ham o'z fikrlarini aytib o'tishgan. "Qanchalik ko'p o'qisang, shunchalik ko'p narsani bilasan. Qanchalik ko'p o'rgansang shunchalik ko'p joylarga borasan"-deb ta'kidlab o'tgan Dr Seuss*. O'qish orqali insonlar o'zlari bilmagan ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishadi, ayniqsa yangi o'rganuvchilar. Edmund Berk* esa o'zining "Tafakkursiz o'qish-xuddi chaynashsiz ovqat yeganga o'xshaydi" kabi iqtibosi bu mavzuga bilvosita aloqadir. Ba'zi yangi o'rganuvchilar matnni o'qish jarayonida diqqatini bir joyga qo'ymasdan yuzaki o'qiganliklari sababli ko'plab ma'lumotlardan chetda qolishadi. Natijada esa matnning asl mohiyatini anglab yeta olishmaydi. "Chaynashsiz ovqat yeyish" shu vaziyatga qiyoslangan.

Qiyinchilikka uchragan yangi o'rganuvchilar tezda tengdoshlar safidan qolib ketishi mumkin. Natijada ular o'zlariga past baho berishni boshlashadi. Ammo, barcha muommoning yechimi albatta topiladi. O'qish ko'nikmasini rivojlantirish uchun matnni o'qish jarayonida qilinadigan xatolik va kamchiliklardan qochish



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

kerak. Matnni o'qishni aniq bir maqsad bilan boshlab, tinish belgilarga e'tibor qaratgan holda davom etirish maqbuldir. Bu esa ravonlik va o'qish zavqini yaxshilanishiga olib keladi. Xato va kamchilik barchada bo'ladi eng muhimi uni tuzatishdir. Bir qancha yo'llar orqali kamchiliklarni yo'q qila olishingiz mumkin, bu esa siz kutgan natijaga erishishingizga katta yordam beradi.

*Dr. Seuss-to'liq ismi Theodor Seuss Geisel (1904-1991). Amerikalik yozuvchi, shoir va rassom. Asosan bolalarga atab yozgan kitoblari bilan mashhur.

*Edmund Burke-1729-1797 yillar yashab ijod qilgan. Ingliz faylasuvi, siyosiy arbob va yozuvchi bo'lib, u asosan siyosat va jamiyat haqida asarlar yaratgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Decoding tips for parents-Tennessee Center for the Study and Treatment of Dyslexia Middle Tennessee State University. 200 N. Baird Lane Murfreesboro, TN 37132 (1-5-7 pages).
2. DoTEFL- <https://www.dotefl.com> English Language Statistics.
3. Touch-type Read and Spell- <https://www.readandspell.com>
4. Campbell Creates Readers- <https://www.campbellcreatesreaders.com>
5. Northwestern University- <https://www.northwestern.edu>
6. Pride Reading Programm (Correct Reading Mistakes)- <https://www.pridereadingprogram.com>